

## “MUVOZANAT” ROMANIDA TIMSOLIY OBRAZLARNING BADIY G’OYASI

*Uralova Dilnoza Murodilla qizi, FarDu 3-kurs tayanch doktoranti*

### ХУДОЖЕСТВЕННАЯ ИДЕЯ СИМВОЛИЧЕСКИХ ОБРАЗОВ В РОМАНЕ “РАВНОВЕСИЕ”

*Уралова Диляноза Муродилла кызы, студентка 3курса базовой  
докторанттуры ФарГУ*



### THE ARTISTIC IDEA OF SYMBOLICAL IMAGES IN THE NOVEL “BALANCE”

*Uralova Dilnoza Murodilla qizi, FarSU 3nd year basic doctoral student*

<https://orcid.org/0009-0009-2662-7868>

+998937981021

dilnozadonchayrova86@

**Annotatsiya:** Jahon adabiyoti romanchiligi bashariyatga bugungi kun muammolarini keskin qo'yib, ularning yechimi sifatida turli uslubiy-shakliy izlanishlari orqali muvaffaqiyat qozonib kelayotgani o'zbek romanchiligi uchun ham mahorat vazifasini o'tadi. Shu ma'noda, istiqlol davri romanlarida zamonaviy jahon adabiyotidagi mavjud tajribalar uchrashi tabiiy holdir. Badiiy tafakkurdagi yangilanishlar haqida Ulug'bek Hamdamning quyidagi fikrlarini keltirish o'rinni: "Yangi shakl, ifoda zo'r berish bilan emas, balki dunyoqarashdagi, olamni idrok etishdagi yangilanish bilan, badiiy tafakkur tarzimizdagi, dilimizdagi yangilanish bilan, demak-ki, ijtimoiy-tarixiy, ma'naviy-psixologik zamindagi ulkan siljishlar bilan dunyo yuzini ko'radi" [1]. Anglashiladiki, roman janrida bo'lgan yangilanishlar qator ijobiy natijalarni berdi. Birgina Ulug'bek Hamdamning romanlari misolida roman janrining estetik kamolotini ko'rishimiz mumkin.

**Tayanch so'z va iboralar:** timsol, voqeа, portret, monolog, obraz, uslub, peyzaj, psixologik timsol, ramz, estetika.

**Аннотация:** Тот факт, что романы мировой литературы успешно ставят перед человечеством современные проблемы и находят их решения посредством различных методологических и формальных исследований, также служит мастерством узбекских романов. В этом смысле вполне естественно, что романы эпохи независимости сталкиваются с существующим опытом современной мировой литературы. Уместно привести следующие мысли Улугбека Хамдама об обновлении художественной мысли: "Новая форма и выражение появятся в мире не силой, а обновлением в мировоззрении, в восприятии мира, обновлением в нашем художественном образе мышления, в наших сердцах, то есть огромными сдвигами в общественно-исторической, духовной и психологической почве" [1]. Понятно, что нововведения в жанре романа дали ряд положительных результатов. Эстетическое совершенство жанра романа мы можем увидеть только на примере романов Улугбека Хамдама.

**Ключевые слова и фразы:** символ, событие, портрет, монолог, образ, стиль, пейзаж, психологический символ, символ, эстетика.

**Abstract:** The fact that world literature novels have been achieving success by sharply posing today's problems to humanity and finding solutions to them through various methodological and formal researches is also a skill for Uzbek novels. In this sense, it is natural that the novels of the independence period meet the existing experiences of modern world literature. It is appropriate to quote the following thoughts of Ulugbek Hamdam about the renewal of artistic thinking: "The world sees the face not by forcing a new form,

expression, but by renewing the worldview, the perception of the world, by renewing our artistic thinking style, our heart, that is, by making huge shifts in the socio-historical, spiritual and psychological ground”]. It is understood that the renewals in the novel genre have yielded a number of positive results. We can see the aesthetic perfection of the novel genre in the example of Ulugbek Hamdam’s novels alone.

**Key words and phrases:** symbol, entity, portrait, monologue, image, style, landscape, psychological symbol, symbol, aesthetics.

## KIRISH

Jahon adabiyoti romanchiligi bashariyatga bugungi kun muammolarini keskin qo‘yib, ularning yechimi sifatida turli uslubiy-shakliy izlanishlari orqali muvaffaqiyat qozonib kelayotgani o‘zbek romanchiligi uchun ham mahorat vazifasini o‘tadi. Shu ma’noda, istiqlol davri romanlarida zamonaviy jahon adabiyotidagi mavjud tajribalar uchrashi tabiiy holdir. Badiiy tafakkurdagi yangilanishlar haqida Ulug‘bek Hamdamning quyidagi fikrlarini keltirish o‘rinli: “Yangi shakl, ifoda zo‘r berish bilan emas, balki dunyoqarashdagi, olamni idrok etishdagi yangilanish bilan, badiiy tafakkur tarzimizdagi, dilimizdagi yangilanish bilan, demak-ki, ijtimoiytarixiy, ma’naviy-psixologik zamindagi ulkan siljishlar bilan dunyo yuzini ko‘radi”[1]. Anglashiladiki, roman janrida bo‘lgan yangilanishlar qator ijobiy natijalarni berdi. Birgina Ulug‘bek Hamdamning romanlari misolida roman janrining estetik kamolotini ko‘rishimiz mumkin.

Nosir yaratgan har bir asarda inson fenomenining o‘y-kechinmalari, orzu-maqсадlari, “inson” deya atalmish yaratiqning maqomi masalasi birlamchi o‘rinni egallaydi. Jumladan, “Muvozanat” romanı ijodkorning bir tuzumdan boshqa tuzumga o‘tish davrida inson qalbida kechgan “xaotik” holatni aks ettirgan asar sifatida baholanadi. Albatta, asar sarlavhasidan ma’lumki, asarda inson hayoti qanday muvozanat asosiga quriladi degan savol qo‘yiladi. Yozuvchi ijodiy suhbatlarining birida bu asarga dastavval “Xaos” deb nom bermoqchi bo‘lganligini aytib o‘tadi. Roman haqida bir qator adabiyotshunos olimlarimiz, xususan, Pirimkul Qodirov [2], Matyoqub Qo‘sjonov [3], Ozod Sharafiddinov [4], Dilmurod Quronov [5] lar asar haqida o‘z haqiqatlarini bildirishgan. Yozuvchi bu asarida muvozanat tushunchasiga badiiy nuqtayi nazardan yondashadi va muvozanatsizlik holati inson qalbidan va jamiyatdan izlanadi. Roman jami 110 sahifadan iborat bo‘lib, 60 ga yaqin faol va nofaol bo‘lgan personajlar ishtirok eatdi. Muallifning boshqa asarlarda ustuvorlik qilgani kabi bu asarda ham ijtimoiy-falsafiy mazmun yetakchilik

qiladi. Ijodkor o‘z uslubi “Muvozanat” romani hozirgacha to‘rt marta qayta nashr etildi. “Asarning g‘oyasi, yangi davrostonasida turgan inson kechmishlari, iztiroblari, taqdirlari xususida kattakichik tadqiqotlar yaratildi. Asar haqidagi talqinlar nafaqat yurtimizda, balki uzoq Amerika adabiy jarayonida ham aks-sado berdi”. Nosir bosh qahramon tanlash masalasiga katta e’tibor qaratadi “Muvozanat” romanining bosh qahramoni Yusuf – tarix fani ziylisi, aynan qirq yoshlarda tasvirlangan qahramon jamiyatning ziyoli qatlami timsoli sifatida tasvirlangan. Nosir prozasida Yusuf ismiga ikki marta murojaat qilingan: “Yusuf va Zulayho” hikoyasi hamda “Muvozonat” romani. Ma’lumki, Qur’oni Karimda Yusuf alayhissalomga bag‘ishlangan surada Yusuf alayhissalom hayot yo‘li to‘liq yoritilgan va bu surada murod inson boshiga tushishi mumkin bo‘lgan cheksiz sinovlar va bunga qilingan chirolyi sabr tasvirlanadi. Bizningcha, roman bosh qahramoni Yusuf o‘tish davri sinovlarga bardosh berishga harakat qilgan, ba’zi o‘rinlarda chirolyi sabr qila olgan qahramon sifatida tasvirlanadi. Yusuf romanda ma’naviy, moddiy, ijtimoiy muvozanatsizlik holatida qolgan qahramon timsoli yoritib beriladi.

## ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Yozuvchining deyarli barcha nasriy asarlarida “ikkilik” unsuri yetakchilik qiladi, jumladan, “Yolg‘izlik” qissasida ichki men va tashqi men orasida qolgan inson muvozanati, “Isyon va Itoat” da isyon va itoatning muvozanati va boshqalar. Aynan, “Muvozanat” romanida muvozanatning xilma-xil ko‘rinishlari ifodalananadi, ulardan modda va ma’no o‘rtasidagi muvozanat birlamchi o‘rinni egallaydi. Jamiyatning boshqa tuzumga o‘tishi, albatta, jamiyat qatlaminining moddiy ahvolini taranglashtirgani bu esa o‘z navbatida ma’naviy olamga ham ta’sir etgani realistik yo‘sinda tasvirlab beriladi.

## NATIJALAR VA MUHOKAMA

Shuningdek, o‘tgan asrda yashagan psixolog A.Maslou insonning yashashdan maqsadi hamda

ehtiyojlari iyerarxiyasini yaratib, unga "Maslou" piramidasi deya nom beradi. Bu nazariyaga binoan insonnning ehtiyojlari: physiological (fiziologik), security (xavfsizlik), love/belonging (sevgi), esteem (hurmat), self-actualisation (o'zligini anglash) dan iborat deydi. Fiziologik ehtiyojlar birlamchi ehtiyojlar hisoblanib, unga taomlanish va boshqa zaruriy ehtiyojlar kiradi, ikkinchisi esa xavfsizlik, ya'ni uy-joy qilish, muqim joyi bo'lishi, uchinchisi esa ijtimoiy qatlama mansublik, ish-joy kasb-kor va boshqalar. To'rtinchi ehtiyoj esa jamiyatda o'ringa ega bo'lishi, o'zi uchun ham hurmatli bo'la olishi, oxirgi ehtiyoj esa o'zini anglash deb nomlanadi. Bu nazariya hozirgacha o'z aktualligini saqlab kelayotgan nazariyalardan hisoblanadi. Bu nazariya, albatta, jamiyatlarga, undagi insonlarga qarata tuzilgan, insonning ana shu ehtiyojlar qondirilsagina jamiyat ma'lum bir ma'noda muvozanat holatiga erishadi.

### XULOSA

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, asarda davr muhiti qahramonlarning ichki nutqi vositasida mahorat bilan ochib beriladi. Yaratilish mohiyati,

hayot o'lchovi, yashashdan maqsad kabi masalalar har bir obraz tegarasida aylanadi. Ijodkor badiiy talqin jarayonida qo'llagan mono-diologik, lirik chekinish, xotira, ichki hamda tashqi monolog, psixologik kechinmalar asarning badiiyatini oshirib, romanning barkamolligini ta'minlagan.

### Adabiyotlar ro'yxati:

1. Норматов У.. Ҳамдамов У. Дунёни янгича кўриш эҳтиёжи. // «Жаҳон адабиёти», 2002. -152 6.
2. Qodirov P. Ma'naviyat, modernizm va absurd // O'zAS, 2004. 26-mart.
3. Hamdamov U. Muvozanat. - Toshkent: Minhoj, 2004, - B.3.
4. Sharafiddinov O. Modernizm jo'n hodisa emas // O'zAS, 2002, 7-iyun.
5. Quronov D. "Muvozanat" - o'tish davri ko'zgusi / Muvozanat - Toshkent: Yangi asr avlod, 2009. - B. 3.
6. Ҳамдам У. Мувозанат // Жаҳон адабиёти, 2002, 5-6-сон.

